


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 6 **2026**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 6 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 6

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 6



TOШKENT-2026

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№6 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-6>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Matyakubov Umidjon Raximovich**  
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudonazarov Egambergan Madrahimovich**  
(PhD., dots.)

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

### IQTISODIYOT FANLARI

**Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

**Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Boltayev Abdurahim Amanovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Zoirov Erkin Xalilovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## TIBBIYOT FANLARI

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

## ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

### **Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**IQTSOD**

<b>1. Boltayev B. Mixliyev O.</b> QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	7
<b>2. Djumabayeva Sh.</b> O‘ZBEKISTONDA NIKOH VA AJRALISH JARAYONLARINING IJTIMOY-DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARI.....	11
<b>3. Raximov Matqurbon Ravshanbek O‘g‘li.</b> GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHNING ZARURATI.....	19
<b>4. Rustamboyev Kamronbek Otabek o‘g‘li.</b> O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LLARI.....	24
<b>5. Курбанова Дилфуза Баходировна.</b> ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ СФЕР УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ.....	27
<b>6. Egamberdiyev Shoxruxbek Davronbekovich.</b> KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	33

**FILOLOGIYA**

<b>1. Jo‘rayeva Muhayyo Abduljalilovna</b> O‘ZBEK VA INGLIZ SO‘ZLASHUV DISKURSIDA DISKURS MARKERLARINING INTERAKTIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	38
<b>2. Raximova Dilfuza Masharip qizi.</b> “XX–XXI ASR BRITANIYA ROMANLARIDA SHARQ VA G‘ARB BADIY TAFAKKURI SINTEZI”.....	42
<b>3. Baxtiyorov Asadbek Dilshod o‘g‘li.</b> ANTONIO JENKINSON VA UNING XIVA XONLIGIGA TASHRIFI.....	46
<b>4. Ювашева Шоира Махаматовна</b> ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ НОРМ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.....	48

**PSIXOLOGIYA**

<b>1. Mashhura Sultonova Rustamboyevna.</b> YETUKLIK YOSHIDAGI AYOLLARDA O‘Z-O‘ZIDAN QONIQISH DARAJASIGA PSIXOLOGIK RESURLAR VA QADRIYATLAR TIZIMINING TA‘SIRI.....	48
<b>2. Sherjanova Nodira.</b> MIGRANT OILALARDA TARBIIYALANAYOTGAN O‘SMIRLARDA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR VA EMPATIYA MUNOSABATI.....	52

<b>3. Odamova O'g'iljon Kenjayevna.</b> SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI.....	58
--	----

## TARIX

<b>1. Egamberdieva Nigora Azadovna. Raxmatullaeva Azada.</b> XORAZM VOHASIDA ILK DAVLATNING SHAKLANISHI JARAYONINING TAHLILI (ARXEOLGIK VA YOZMA MANBALAR ASOSIDA).....	63
<b>2. Abdullayev U.I. Kurshat Y. Satimov B.</b> OROLBO'YIDA MUDOFA ISTEHKOMLARNING KELIB CHIQISHI BO'YICHA BA'ZI BIR MULOHAZALAR.....	68
<b>3. Egamberdiyeva Zulfiya Zafar qizi.</b> OLTIN O'RDA DAVRIDA XORAZMDA IQTISODIY HAYOT.....	73
<b>4. Бобождонов У.</b> ҚЎЙҚИРИЛГАН ҚАЛЪА АНТИК ДАВР МАДАНИЙ МЕРОС МАРКАЗИ.....	78
<b>5. Umidbek Abdalov Matniyazovich. Ibodullayeva Oymarjon Shavkat qizi.</b> FROM THE HISTORY OF DIPLOMATIC AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KHIVA KHANATE AND THE RUSSIAN EMPIRE AT THE BEGINNING OF THE 18 <sup>th</sup> - 20 <sup>th</sup> CENTURIES.....	82


## PEDAGOGIKA

<b>1. Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi.</b> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING 4 K KOMPETENSIYALARINI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH.....	86
<b>2. Yunusxo'jayev Mustafo Zafarxo'ja o'g'li.</b> NAJMIDDIN KUBRO PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI.....	96
<b>3. Radjapova Feruza Abdullayevna.</b> PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI VA ULARNI PEDAGOGIK TA'LIMGA INTEGRATSIYA QILISH ALGORITMI...106	

**Djumabayeva Shaira Xalillayevna**

Ma'mun universiteti dotsenti, i.f.f.d., O'zbekiston Respublikasi  
Elektron pochta: djumabaeva.shoira@gmail.com

## O'ZBEKISTONDA NIKOH VA AJRALISH JARAYONLARINING IJTIMOYIY- DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21008335>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda nikoh va nikohni bekor qilish, ya'ni ajralish demografik jarayon sifatida ilmiy nuqtaiy nazardan tadqiq etilgan.. Qayd etilgan nikoh va ajralishlarning mutlaq soni va koeffitsientidagi o'zgarishlar tahlil etilgan. Nikoh va ajralish darajasi eng yuqori bo'lgan hududlar va undagi o'zgarishlar tadqiq etilgan. Shuningdek, oilaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va demografik omillar hamda ajralish sabablari sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilingan. Maqolada Statistika agentligi ma'lumotlari va ilmiy manbalarga tayangan holda nikoh va ajralish jarayonlarining jamiyat rivojlanishidagi o'rni hamda tendensiyalari aniqlangan. Tadqiqot natijalari oilaviy siyosatni takomillashtirish, demografik barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** nikoh, nikohdan ajralish, demografik jarayonlar, nikoh koeffitsienti, ajralish koeffitsienti, aholi takror barpo bo'lishi, oilaviy barqarorlik, sotsiologik tahlil, ijtimoiy-demografik omillar, O'zbekiston aholisi, statistik tahlil, oilaviy munosabatlar, demografik siyosat.

**Djumabayeva Shaira Khalillayevna**

Associate Professor, PhD, Ma'mun University, Uzbekistan  
Email: djumabaeva.shoira@gmail.com

## SOCIO-DEMOGRAPHIC CHANGES IN MARRIAGE AND DIVORCE PROCESSES IN UZBEKISTAN

**Annotation:** This article scientifically examines marriage and divorce in Uzbekistan as a demographic process. Changes in the absolute number and coefficients of registered marriages and divorces are analyzed. Regions with the highest levels of marriage and divorce and their dynamics are also studied. In addition, social, economic, and demographic factors affecting family stability, as well as causes of divorce, are analyzed using a sociological approach. Based on data from the Statistics Agency and scientific sources, the role and trends of marriage and divorce processes in the development of society are identified. The results of the study are of practical importance in improving family policy, ensuring demographic stability, and developing social programs.

**Keywords:** marriage, divorce, demographic processes, marriage rate, divorce rate, population reproduction, family stability, sociological analysis, socio-demographic factors, population of Uzbekistan, statistical analysis, family relations, demographic policy.

Джумабаева Шаира Халиллаевна  
Доцент, к.э.н., Университет Мамуна, Республика Узбекистан  
Электронная почта: djumabaeva.shoira@gmail.com

## СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ПРОЦЕССАХ БРАКА И РАЗВОДА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация:** В данной статье с научной точки зрения рассматриваются брак и расторжение брака (развод) в Узбекистане как демографический процесс. Анализируются изменения абсолютного числа зарегистрированных браков и разводов, а также их коэффициентов. Изучаются регионы с наиболее высокими показателями браков и разводов и их динамика. Кроме того, с социологической точки зрения анализируются социальные, экономические и демографические факторы, влияющие на стабильность семьи, а также причины разводов. На основе данных Агентства статистики и научных источников определяются роль и тенденции процессов брака и развода в развитии общества. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования семейной политики, обеспечения демографической стабильности и разработки социальных программ.

**Ключевые слова:** брак, развод, демографические процессы, коэффициент брачности, коэффициент разводов, воспроизводство населения, семейная стабильность, социологический анализ, социально-демографические факторы, население Узбекистана, статистический анализ, семейные отношения, демографическая политика.

### Kirish

Nikoh va nikohni bekor qilish, ya'ni ajralish jarayonlarini aholishunoslik fanlari tizimiga kiruvchi qator fanlar o'z maqsadlariga mos ravishda tadqiq etadilar. Demografiyada nikoh aholi takror barpo bo'lishiga bevosita ta'sir etuvchi demografik jarayon sifatida, o'z uslubi, koeffitsientlari yordamida o'rganiladi. Nikoh va ajralish jarayonlarini har tomonlama ijtimoiy-demografik jihatdan tadqiq etish mamlakat aholisining yashash tarzini hamda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jihatdan rivojlanish istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nikoh - ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat tarixining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan. Jamiyat taraqqiy etib borishi bilan uning shakli o'zgarib, o'zi esa mustahkamlanib bordi. Dunyodagi barcha xalqlar uchun nikohni paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy qonuniyatlari bir xil bo'lsada, lekin uning rivojlanish jarayoni, mustahkamligi har bir xalqda o'ziga xos xususiyatga ega. O'zbekistonda nikohning dunyoviy-demokratik shakli erkak va ayollarning teng huquqligini e'tirof etishga asoslangan monogam - yakka nikohlik, ya'ni bir erkakning bir ayol bilan yakka nikoh asosida yashashi o'rnatilgan[6.110 b.].

Qadimda ijtimoiy hayotda erkaklar huquqining ustuvorligi oila va nikoh munosabatlarida o'z aksini topgan. Iqtisodiy imkoniyati bor erkak bir nechta ayolni nikohiga olishi mumkin bo'lgan[4.98 b.]. 1924 yilga kelib O'zbekistonda ko'pxotinlilik qonun yo'li bilan taqiqlandi hamda nazorat qilindi. 1927 yilda esa oila va nikoh munosabatlari haqidagi kodeks ishlab chiqildi.

Har bir davlatda nikohga kirish yoshi yigit va kizlar uchun belgilangan va davlat, oila hamda nikoh qonunlari orqali rasmiylashtiriladi. 1927 yilda O'zbekiston qonuniga ko'ra, qizlar uchun nikoh yoshi-16 yosh, yigitlar uchun esa 18 yosh deb belgilandi[1.]. 1968 yilga kelib qizlarning nikohga kirish yoshi bir yoshga (17 yosh) ko'tarildi. Mustaqillik yillarida yaratilgan "Oila kodeksi"da (1998 y.) qizlar uchun nikoh yoshi -17 yosh, yigitlar uchun 18 yosh deb belgilandi. Keyinchalik nikoh yoshi Oila kodeksiga muvofiq erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilandi[2.]. Alohida hollarda, nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirish mumkin. Nikoh yoshining ko'tarilishi qizlarni erta turmushga chiqish hollarining kamayishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Oila" bobida "nikoh nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi" deyiladi[1.], ya'ni nikoh - ayol va erkakning o'z ixtiyori bilan bildirilgan roziligiga asoslanishi, oilaviy munosabatlarda er bilan xotinning teng

huquqli ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Bugungi kunda nikohni kayd etish, ya'ni ro'yhatga olish fuqarolik tartibi qonun-qoidalariga va diniy urf-odatlariga ko'ra amalga oshiriladi.

Nikohga kiruvchilar soni davlat mahsus tashkilotlari (FHDYo) tomonidan muntazam ro'yhatga olib boriladi. "FHDYo" organlarida ro'yhatdan o'tkazilgan nikohgina er-xotinlik xaq-huquqlari va majburiyatlarini tug'diradi. Qonunda kishining bir nikohda bo'laturib, yana boshqa kishi bilan ham nikohlanishi va yaqin qon-qarindoshlar bilan nikoh tuzishi ta'qiqlanadi. Aholi nikohga kirishi natijasida oila shakllanadi. Aholi sonining ortib borishi asosan oila bilan bog'liqdir. Chunki, aholining qayta tiklanishi oilada sodir bo'ladi.

#### Nikoh soni va koeffitsientidagi o'zgarishlar tahlili

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025 yil O'zbekistonda 267,1 mingta nikoh kayd etildi. Tashkil topgan nikohlarning 49,7% shaharlarda, 50,3% esa qishloq joylarida tuzildi[10.]. Qayd etilgan nikohlar soni yillar mobaynida bir tekisda bo'lmadi. 2025 yilga kelib nikohdan o'tuvchilarning mutlaq soni ham, har 1000ta aholiga to'g'ri keladigan nikoh soni ham o'zgardi(1-jadval).

1991-2025 yillarda kayd etilgan nikohlarning mutlaq soni 270,3 mingtadan 267,1 mingtaga yetdi yoki 1991 yilda har 1000ta aholiga nisbatan 12,9ta nikoh kayd etilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025 yilda 7,0 ni tashkil etdi. Demak, nikohni kayd etish 1991-2025 yillarda mutlaq sonda 3,2 mingtaga kamaydi, har 1000 kishi hisobiga ham 5,9 promillega qisqardi.

1-jadval

O'zbekistonda nikoh soni va koeffitsienti dinamikasi[8.]

Yillar	Mutlaq son, ming	Koeffitsient
1991	270,3	12,9
1995	170,8	7,5
2000	168,9	6,8
2005	184,0	7,0
2010	292,3	10,1
2015	287,6	9,2
2020	296,8	8,7
2021	305,2	8,7
2022	296,7	8,3
2023	283,8	7,8
2024	271,8	7,4
2025	267,1	7,0

O'zbekiston hududlarida kayd etilgan nikohlar soni turlicha bo'lib tug'ilish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan hududlarda nikohning umumiy koeffitsienti ham yuqori[10.]. Xususan, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent shahrida va Xorazm viloyatlarida tug'ilish va nikohning umumiy koeffitsientlari respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori. Nikohning umumiy koeffitsienti - ma'lum hududda va ma'lum davrda nikohga kirganlar sonining shu hudud aholisining o'rtacha soniga nisbati bilan ifodalanadi.

1991-2025 yillarda nikohning umumiy koeffitsienti respublikaning barcha mintaqalarida qisqardi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Toshkent, Andijon va Navoiy viloyatlarida nikoh koeffitsienti 5,9 promillegacha kamaydi (2-jadval). Bu hol asosan, demografik hamda iqtisodiy-ijtimoiy omillar bilan izohlanadi. Xususan, nikohga kiruvchi yigit-qizlar sonining kamayishi, oilalardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

## O‘zbekiston mintaqalarida nikoh soni va koeffitsientining o‘zgarishi [8.]

	1991 yil		2005 yil		2020 yil		2025 yil	
	Mutlaq soni	Koef.	Mutlaq soni	Koef.	Mutlaq soni	Koef.	Mutlaq soni	Koef.
O‘zbekiston Respublikasi	270270	12,9	183991	7,0	296751	8,7	267131	7,0
Qoraqalp.Resp.	17648	13,7	9643	6,1	11561	6,0	12200	5,9
Viloyatlar:								
Andijon	25823	14,2	15834	6,7	27725	8,8	23000	6,5
Buxoro	21564	12,5	11847	7,8	15771	8,1	14900	7,1
Jizzax	10078	12,7	7529	7,2	113929	10,0	11100	7,1
Navoiy	-	-	7236	8,9	89080	9,0	7300	6,6
Namangan	21086	13,3	15043	7,2	24955	8,8	22000	6,9
Samarqand	31413	13,0	19989	6,9	33385	8,5	31700	7,4
Surxondaryo	17640	13,0	11563	6,0	24790	9,3	22800	7,3
Sirdaryo	7519	12,9	4385	6,5	8903	10,4	6800	7,2
Toshkent	25096	11,4	17608	7,1	26122	8,9	19100	6,0
Farg‘ona	31011	13,8	21081	7,3	34067	9,0	28900	6,8
Xorazm	16276	15,0	11177	7,7	13991	7,4	15300	7,3
Qashqadaryo	20922	12,1	16039	6,7	30847	9,3	28900	7,8
Toshkent sh.	24194	11,4	15017	7,0	21625	8,2	23100	7,3

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi asosiy omillardan biri ularga nikoh va oila tushunchalarini yoshlikdan singdirmoqdir. Chunki, har bir shaxs oilada tug‘iladi va kamolga yetadi. Shuningdek, oila mustahkam bo‘lishining muhim sharti er-xotinning turmush-ro‘zg‘or muammolarining qiyin masalalarini birgalikda muhokama eta bilishga qodir bo‘lishidir[6.]. Oilada psixologik jihatdan qulay sharoit bo‘lsa, er-xotin shaxs sifatida bir-birini kamolga yetkazib, tarbiyalab boradi.

#### Ajralish soni va koeffitsientidagi o‘zgarishlar tahlili

Nikoh erkinligi ajralib ketish erkinligini ham ko‘zda tutadi. Nikohni ro‘yxatga olish kabi ajralishni rasmiylashtirish ham davlat nazorati ostidadir. Vaqt o‘tishi bilan tuzilgan nikohlarning bir qismi er yoki xotinning vafoti tufayli, yana bir qismi esa turli xil kelishmovchiliklar sababli bekor qilinadi.

Ajralish - murakkab sotsial jarayon bo‘lib, u bir qator omillar ta’sirida sodir bo‘ladi. Ularga jamiyatda nikohning tutgan o‘rni, nikoh turlari, har bir davlatda nikoh va ajralish haqidagi mavjud qonunlar, davlat tomonidan oila mustahkamligi borasida olib borilayotgan siyosat, ayollarning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, farzandsizlik, oilaning turmush tarzi, din, urf-odatlar, alkogolizm va narkomaniya kabilarni kiritish mumkin. Ushbu omillar ta’sirida jamiyat taraqqiyotining turlicha bosqichlarida, davlatlarda, xalqlarda va aholining yosh guruhlarida ajralish darajasi turlicha bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq nikohni bekor qilish er-xotindan birining arizasiga binoan sud idoralari, voyaga yetmagan bolalari bo‘lmagan er-xotinning o‘zaro roziligi bo‘lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari(FXDYo) tomonidan rasmiylashtiriladi.

2025 yil respublikada 46914 ta nikoh ahdi bekor qilindi. Nikohdan ajralishlarning 60,1 foizi shahar joylariga, 39,9 foizi qishloq joylariga to‘g‘ri keldi[10.]. Ajralishlar sonining asosiy qismini aslida allaqachonlar to‘xtatilgan er-xotin munosabatlarining yuridik jihatdan rasmiylashtirilishi tashkil etdi. Oilalar orasida ajralgan, biroq yuridik jihatdan rasmiylashtirilmaganlar ham ko‘p.

Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, 1991-2025 yillarda nikohdan ajralishlar soni mutlaq sonlarda ortgan bo'lsa, uning umumiy koeffitsienti biroz kamaygan. 1991 yilda ajralishning mutlaq soni 33,3 mingdan ortiqni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 46,9 mingtani, ya'ni 13,6 mingtaga oshdi yoki xar 1000 ta aholiga nisbatan nikoh ahdini bekor qilish 0,3 promillega qisqardi (3-jadval).

3-jadval

O'zbekistonda nikohdan ajralish soni va koeffitsientining o'zgarishi[8.]

Yil	Mutloq sonda	Koeffitsient
1991	33,3	1,6
1995	21,2	0,9
2000	19,9	0,8
2005	16,4	0,6
2010	17,8	0,6
2015	29647	0,9
2020	28233	0,8
2021	39349	1,1
2022	48733	1,4
2023	49198	1,4
2024	45135	1,2
2025	46914	1,3

Aytish joizki, biz tahlil qilayotgan davrda nikohni bekor qilish hollar 2010 yilgacha mutlaq sonda ham, koeffitsientida ham pasayish kuzatildi. 2010 yildan keyingi davrda ajralishlarning mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarida ko'tarilish kuzatildi.

1991 yilda ajralishlar sonining ko'pligiga tashqi migratsiyaning ta'siri ham katta bo'ldi. Ma'lumki, sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida mahalliy millat bo'lmagan xalqlarning ko'pchiligi o'zlarining ona yurtlariga ko'chib ketdi. Ba'zi oilalarda er yoki xotinning ko'chib ketishga xohishi bo'lmagani sababli, ular orasidagi nikoh ahdini bekor qilingan. Natijada ajralishlar soni ortib ketgan.

Ajralish hollari eng ko'p Toshkent shahrida hamda Toshkent, Sirdaryo va Andijon viloyatlarida kuzatildi. Bu mintaqalarda ajralishning umumiy koeffitsienti respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori(4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston mintaqalarida ajralishlar soni va dinamikasi[8.]

	1991 yil		2005 yil		2020 yil		2025 yil	
	Mutlaq soni, birlikda	Koef.	Mutlaq soni, birlikda	Koef.	Mutlaq soni, birlikda	Koef.	Mutlaq soni, birlikda	Koef.
O'zbekiston Respublikasi	33367	1,6	16392	0,6	28233	0,8	46914	1,2
Qoraqalp.Resp.	1042	0,8	539	0,3	1028	0,5	1937	0,9
Viloyatlar:								
Andijon	2377	1,3	670	0,3	3125	1,0	4981	1,4
Buxoro	2552	1,5	1012	0,7	1517	0,8	2434	1,2
Jizzax	749	0,9	520	0,5	1068	0,8	1853	1,2
Navoiy	-	-	761	0,9	931	0,9	1376	1,2
Namangan	1776	1,1	1152	0,6	2104	0,7	4216	1,3
Samarqand	2713	1,1	1644	0,6	2961	0,8	4802	1,1

Surxondaryo	1446	1,1	732	0,4	1600	0,6	3143	1,0
Sirdaryo	851	1,5	558	0,8	1093	1,3	1573	1,7
Toshkent	5031	2,3	2236	0,9	2958	1,0	4344	1,4
Farg'ona	3467	1,5	1090	0,4	2841	0,8	4893	1,2
Xorazm	758	0,7	676	0,5	1098	0,6	1927	0,9
Qashqadaryo	1339	0,8	925	0,4	2010	0,6	3323	0,9
Toshkent sh.	9266	4,4	3877	1,8	3899	1,5	6112	1,9

Yuqorida sanab o'tilgan hududlarda ajralishlar sonining yuqori bo'lishida bir qancha omillar mavjud. Ulardan biri aholi orasida yevropa xalqlarining ulushi yuqoriligidir. Ma'lumki, yevropa xalqlarida ajralish ko'rsatkichlari mahalliy halqlarga nisbatan yuqori. Ajralish hollarining yuqori bo'lishidagi ikkinchi omil bu aholining ma'lumotlilik darajasidir. Aholining ma'lumoti qancha oshib borgan bo'lsa, mos ravishda ajralish koeffitsienti ham ortib borgan.

Nikoh va ajralish jarayonlarining ijtimoiy-demografik holatiga oid masalalarning tub mohiyatini chuqurroq o'rganish maqsadida muallif tomonidan sotsiologik tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida ajralish sabablari o'rganildi [7.19b.]. Ajralishga sabab bo'layotgan omillar orasida birinchi navbatda er-xotin dunyoqarashining mos kelmasligi, ya'ni xarakterlarining bir-biriga zid ekanligi ko'rsatildi. Ushbu sabab bilan nikohlarning har uchtadan bittasi ajralib ketayotganini ko'rsatdilar. Ajralganlarning ko'pchiligi yosh oilalar bo'lib, ularda hayotiy ko'nikma va tajriba yetishmasligi hamda bir-biriga yon bosishni xohlamasligi asosiy sabablardandir deb ko'rsatdilar. Darhaqiqat, ba'zi ota-onalar hech qaerda ishlamaydigan, biror kasbni egallamagan, o'zini moddiy jihatdan ta'minlay olmaydigan o'g'illarini uylantirib ko'yyadilar. Bu esa yosh oilalarning dastlabki yilidayoq iqtisodiy qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Oqibatda turli xil janjal va nizolar kelib chiqadi. Qizlarning turmushdagi uquvsizliklari, oila ilmidan xabardor emasliklari va turmushda uchrab turadigan ba'zi qiyinchiliklarga bardoshli, chidamli emasliklari oqibatida yangi tashkil etilgan oilalarning poydevori darz ketib, oilalar buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Respondentlarning ta'kidlashicha, ajralishga aholi orasida ma'naviy-ahloqiy me'yorlarning susayishi, ya'ni er yoki xotin bir-biriga xiyonat qilishi ham sabab bo'lmoqda. Xiyonat qilayotganlarning uchdan ikki qismidan ortig'i erkaklar tomonidan sodir etilayotganini ko'rsatganlar. Shuningdek, erkaklar orasida tobora avj olib ketayotgan ichkilik va giyohvandlik moddalariga ruju qo'yilishi, oilasiga nisbatan e'tiborsizligi tufayli oilalar inqirozga yuz tutmoqda. Er yoki xotinning boshqa davlatlarga ish qidirib ketishlari va o'sha yerlarda yillar davomida qolib ketishlari ham ajralishlarga sabab bo'lmoqda.

Ajralish sabablari orasida qaynona-kelin va boshqa oila a'zolari o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar bora-bora er-xotin ajralishi bilan yakunlanmoqda. O'zga oila muhitiga tushgan kelin shu oilaning o'ziga xos turmush tarziga ko'nikib ketishida qaynona va boshqa oila a'zolarining roli nihoyatda katta. Chunki, bir oilaning xayoti ikkinchi oilaning hayotiga o'xshamaydi. Shuning uchun tarbiya har bir oilada turlicha bo'ladi. Sharoit va tarbiyaning turlichaligi esa o'zga xonadonga borgan kelin bilan shu xonadon oila a'zolari o'rtasida bir-biriga ko'nikib, tushinib ketishida qiyinchilik tug'diradi.

Respondentlarning "Qizlar necha yoshda nikohga kirgani ma'qul"ligi haqidagi fikrlari o'rganildi. Unga ko'ra, respondentlarning xar to'rttadan uchtasi qizlarning nikohga kirish yoshini 23 deb, xar beshdan bittasi esa 20-22 yoshni ma'qul deb topdilar. Respondentlarning asosiy qismi qizlarning erta nikohga kirishlari ularning oliy ma'lumotli kasb egasi bo'lishlariga hamda sog'lom farzandlar tug'ilishi va onaning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini bildirganlar. Keyingi yillarda hududlardagi xotin-qizlar bo'limalari, mahalla fuqarolari yig'inlari va mahalla faollari tomonidan olib borilayotgan ishlar erta turmush qurishning oldini olishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Respondentlarning "Nikoh nimaga asoslanib tuzilgani ma'qul"ligi haqidagi fikrlari ham o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, 64,6% respondent nikoh "sevgi-muhabbat tuyg'usi" asosida tuzilishi maqsadga muvofiqligini bildirganlar. "Ota-onaning hohish-istagi va sovchilik" asosida

nikoh qayd etilishini ma'qullaganlar 30,7%ni tashkil etdi. Xulosa qilib aytganda, ayollar asosan "sevgi-muhabbat" asosida tuzilajak nikohlarni qo'llab quvvatladilar.

Ma'lumki, yaqin qon-qarindoshlar o'zaro nikohlanishi zurriyot salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Qarindoshchilik nikohlari o'zbeklarda uchraydi. Respondentlarning yaqin qarindoshchilik o'rtasidagi nikohga bo'lgan fikrlari o'rganildi. Respondentlarning 5,8% savolga "ijobiy", 80,5% "salbiy" va 13,7% esa "javob berishga qiynalaman" degan fikrlarni bayon etganlar. "Ijobiy" fikr bildirganlar bunday nikohda qarindosh-urug'chilik yanada mustahkam bo'lishini, er-xotin birlariga hamisha qadrli bo'lishini hamda ajralishlar kam bo'lishi, to'ydagi o'ziga xos oldi-berdida kelishish osonligini ko'rsatdilar. Lekin, bu jarayonda ular tug'iladigan farzandlar kelajagiga e'tibor bermasliklari ma'lum bo'ldi. O'z navbatida salbiy fikr bildirganlar bu nikoh tibbiy nuqtaiy nazardan xavfli ekanligini, nosog'lom, aqli zayif farzand dunyoga kelishi mumkinligini hamda ushbu nikoh sababli yaqin bo'lgan qarindoshchilik aloqalarida ziddiyatlar yuzaga kelishini ta'kidlaganlar. Demak, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohga yo'l qo'ymaslik, bu kelajakdagi farzandlar bilan bog'lik muammolarni oldini olishga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Nikoh jamiyat tomonidan muayyan tartibga solib turiladigan o'zaro hamda bolalariga nisbatan munosabatlar shakli bo'lib u jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrida paydo bo'lgan, jamiyat rivojlanishi bilan shakllanib, takomillashib va o'zgarib borgan.

Tuzilgan nikohlarning mustahkam bo'lishida er-xotinning turmush-ro'zg'or muammolarining qiyin masalalarini birgalikda muhokama eta bilishga qodir bo'lishidadir. Keyingi yillarda nikoh tuzishdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy yetukligining past darajadaliqi nikohning muvoffaqiyatli bo'lishida bir qancha muammolarni yuzaga keltirgan va ajralishlarga sabab bo'lgan.

Mustahkam nikohning shakllanishi ko'p jihatdan oilaning iqtisodiy holatiga xam bog'liq. Shundan kelib chiqib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi oilalarni qo'llab quvvatlash, ularga davlat tomonidan imtiyozlar kreditlar ajratishni yanada yengillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Yaqin qarindoshlar o'rtagidagi nikohlarni oldini olishga oid mutaxassislar bilan davra suxbatlari uyushtirish, unda maxsus video tasvirlardan foydalanish orqali targ'ibot qilish oilaning mustaxkamligini ta'minlaydi.

Yigit-qizlar orasida sog'lom turmush tarzi va madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish asosida ichkilik va giyohvandlikni oldini olishga erishiladi. Buning uchun sport aholining keng qatlamlarini, ayniqsa yoshlarning kundalik xayotida keng o'rin olishiga katta e'tibor qaratish mustaxkam oilaga zamin yaratadi. Sog'lom turmush tarzi tushunchasiga oid axborotlarning ommabop va qiziqarli darajada targ'ibot qilish nikohning mustaxkam poydevorini qurishga, millatni sog'lomlashtirishga doir muammolarni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Nikohning mustahkam bo'lishida kelin-kuyovning to'ydan avval tibbiy ko'rikdan o'tishlari muhim o'rin tutadi. Tibbiy ko'rikdan o'tish nikohga kiruvchilarda ikki taraflama ishonch xosil qiladi. Agar bo'lajak nikoh tuzuvchilar sog'lom bo'lsa, tug'ilajak farzandlar ham sog'lom bo'ladi. Bu nafaqat farzandning o'ziga, balki oila iqtisodiyotiga, qolaversa jamiyat rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Anashuning uchun ham bo'lajak kelin-kuyovning tibbiy-biologik jihatdan mosligi hozirgi zamonda juda zarur va foydalidir.

Nikohlarni mustahkamlash uchun eng avvalo yigit-qizlarga oilaning demografik, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalari hamda ahloqiy madaniyat xaqida yoshlikdan o'rgatishning ahamiyati juda katta. Buning uchun yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashga yordam beradigan davr suhbatlari, o'quv markazlari va mahsus adabiyotlarni nashr etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tadqiqot natijalaridan mamlakatning ijtimoiy-demografik rivojlanishining asosiy yo'nalishini belgilash uchun oldindan dasturlar tuzishda, shuningdek tuzilgan nikohlarni har tomonlama mustahkamlashda, milliy va samarali demografik siyosat olib borishda ma'lum miqdorda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 28 avgustdagi O'RQ-558-sonli Qonuni tahriri. Oila kodeksi. 15-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 14 bob.76-modda. 2015-2024 - [www.constitution.uz](http://www.constitution.uz)
3. Харчев А.Г., Мацковский М.С. Современная семья и ее проблемы (Социально-демографическое исследование). М., 1978 г.
4. Караханов М.К. Демографические процессы в Средней Азии во второй половине XIX столетия. М., «Статистика» 1977, с.207
5. Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. Т., Университет, 1997, 170 бет.
6. Назарова Н.М., Мамадалиева Х.Х. Ўзбекистоннинг демографик салоҳияти. Монография.-Т.: Фан ва технология, 2011. 176 б.
7. Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiy-demografik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va muammolari. Monografiya. T.: Bookmany print. 2024. 124 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.
9. Демографический ежегодник Узбекистана 2018-2022. Стат.сборник. Агентства статисти при Президенте РУз. Т., 2023.
10. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati 2024. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. Т., 2025.

boshlab, ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish, refleksiv-metagnitiv o'sish va dunyoqarash transformatsiyasigacha bo'lgan izchil jarayonni qamrab oladi.

Birinchi bosqich – qadriyatlarni anglash va o'zlashtirish. Bu bosqichda talaba ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat uchun muhim tamoyillar sifatida qabul qiladi. Halollik, adolat, shukronalik, vafodorlik, mehribonlik, kamtarlik va sabr kabi sifatlarning mazmunini anglash talabaning keyingi rivojlanishi uchun poydevor bo'ladi. Agar qadriyatlar ongli ravishda o'zlashtirilmasa, ular xulq-atvorda barqaror namoyon bo'lmaydi. Shu sababli modelda qadriyatlarga oid muloqot, hikmatlar tahlili, badiiy-pedagogik matnlar, tarixiy misollar va refleksiv savollar muhim vosita sifatida qo'llanadi.

Ikkinchi bosqich – ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish. Bu bosqichda qadriyatlar amaliy ko'nikma va xulq-atvor sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Talaba axloqiy vaziyatlarda qaror qabul qiladi, o'z fikrini asoslaydi, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qiladi, adolati muloqotga kirishadi va o'z harakatining oqibatini baholaydi. Mazkur kompetensiya pedagogik kasb uchun ayniqsa muhim, chunki o'qituvchi o'z shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi bosqich – ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish. Najmiddin Kubro merosida insonning kamoloti jamiyat bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shaxsning ichki pokligi uning boshqalarga bo'lgan munosabatida, muloqot odobida, hamkorlikda, insonparvarlikda va fuqarolik mas'uliyatida ko'rinadi. Shu sababli talabalarda ijtimoiy-kommunikativ sifatlarni rivojlantirish ma'naviy tarbiyaning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich – refleksiv-metakognitiv rivojlanishni faollashtirish. Bu bosqichda talaba o'z xatosini ko'ra olish, uni tan olish, tuzatish, kelgusi rivojlanish maqsadini belgilash va o'z ustida ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Najmiddin Kubro ta'limotidagi tavba va o'zini tahlil qilish g'oyalari aynan shu bosqichning nazariy asosini tashkil etadi. Pedagogik amaliyotda bu bosqich portfoliolar, o'z-o'zini baholash varaqalari, refleksiv esselar va individual rivojlanish xaritalari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Beshinchi bosqich – dunyoqarash transformatsiyasi va komil inson idealiga yaqinlashish. Bu bosqichda talaba bilim, qadriyat, tajriba, refleksiya va ijtimoiy mas'uliyatni yagona hayotiy pozitsiyaga birlashtiradi. Komil inson ideali zamonaviy pedagogik ta'limda axloqiy mas'uliyatli, kasbiy kompetent, insonparvar, ijtimoiy faol va o'z ustida ishlaydigan shaxsni tarbiyalash maqsadi bilan uyg'unlashadi.

2-jadval. Ma'naviy rivojlanish blokida shakllantiriladigan ijobiy sifatlar va ularning salbiy muqobillari

Ijobiy sifat	Pedagogik mazmuni	Salbiy sifat	Tarbiyaviy xavf
Halollik	Rostgo'ylik, vijdonlilik va haqiqatga sodiqlik.	Yolg'onchilik	Ishonchning yo'qolishi va axloqiy beqarorlik.
Mas'uliyat	Vazifa va burchni ongli bajarish.	Mas'uliyatsizlik	Burchga loqaydlik, kasbiy sustlik.
Insonparvarlik	Boshqalarga hurmat, mehr va yordamga tayyorlik.	Shafqatsizlik	Inson manfaatiga befarqlik.
Kamtarlik	O'zini yuqori qo'ymaslik, oddiylik.	Kibr	Boshqalarni mensimaslik.
Sabr-toqat	Qiyinchilikni matonat bilan yengish.	Sabrsizlik	Shoshqaloqlik, hissiy beqarorlik.
Bag'rikenglik	Turli fikr va qarashlarni hurmat qilish.	Murosasizlik	Nizo va inkor kayfiyati.
O'zini nazorat qilish	Nafs, hissiyot va xatti-harakatni boshqarish.	Nafsga berilish	Hirs va impulsiv qarorlar.
Ilmga intilish	Bilim olish va o'zini rivojlantirishga ehtiyoj.	Johillik	O'rganishga befarqlik.